

“HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT” MAVZUSI BO’YICHA TUZILGAN VEB-KVEST.


1. KIRISH.

Turli-tuman hayvonlar haqida ma’lumotlar.



Olmaxonlar - ular o’rmonda yashaydi. Ular o’tkir tirnoqli uzun barmoqlari yordamida daraxt shoxlarida chaqqon harakatlanadi. U daraxt mevasi, urug’i, yosh navdalari, kurtaklari, shuningdek hashorotlar, qushlarning tuxumi va bolalari bilan oziqlanadi. Kuzda urg’ochisi qish uchun daraxt kovagidagi uyasiga oziq g’aymlaydi.

Karkidonlar-yirik hayvonlar, terisi qalin, deyarli jubsiz. Tumshug’i ustida bittadan beshtagacha shoxi bo’ladi. Shoxining uzunligi ba’zan 1.5metrgacha yetadi. Oyoqlari yug’on va kalta, faqat o’rta barmoqlari rivojlangan. Afrika va Janubiy Osiyoda tarqalgan. Tropik o’rmonlar, savannalar, suv havzalari boyidagi chakalakzorlar va botqoqliklarda juft bo’lib yashaydi.



Jirafalar – Jirafalarning bo’yni juda uzun, boshi kichkina; bo’yi 5-6 m ga yetadi. Jirafani boshida teri bilan qoplangan kalta shoxlari bo’ladi.

Bizon –
Shimoliy
Amerika

qit’asida keng tarqalgan. Hozir AQSH va Kanadaning cho’l va o’rmoncho’llarida asosan qo’raqxonalarda saqlanib qolgan. Uning tanasining uzunligi 3 m ga, vazni 720 kg gacha bo’ladi.





Bo'ri – dunyoning ko'pchilik hududlarida tarqalgan ancha yirik yirtqich hayvon. Kuchli va epchil bo'lib, o'zidan katta hayvonni ham o'ldirishi mumkin. Bo'rilar juft bo'lib yashaydi. Urg'ochi bo'ri inda 3 – 13 tagacha nimjon ko'zi yumuq bola tug'adi. Bolasini dastlab sut, keyin go'sht bilan boqadi. Kuzda bo'ri oilasi tarqalib ketmasdan gala bo'lib ov qiladi. Ular ko'payib ketganda uy hayvonlariga ham hujum qilib zarar keltirishi mumkin.

Tulki – juda keng tarqalgan yirtqich. Yozda uyada yashab 4 – 6 tagacha bola tug'adi. Bolalariga dastlab o'ldirilgan, keyin chalajon, so'ngra tirik o'lja keltirib, ularni ov qilishga o'rgatadi. Kuzda tulkilar oilasi tarqalib ketadi; qishda esa ular uyaga kirmasdan alohida yashaydi. Tulkilar mo'ynasi juda qalin bo'lganligi sababli qishki sovuq ularga ta'sir qilmaydi. Ular asosan kemiruvchilar va mayda umurtqalilar bilan oziqlanadi. Kezi kelsa uy parra ndalariga ham hujum qiladi. U chiroyli mo'ynasi uchun ovlanadi.



Gepard – Xipcha va chopqir hayvon. O'ljasini ta'qib qilib, urib yiqitgach, tishi bilan tutadi. Uning oyoqlari uzun va ingichka bo'lib, tirnoqlari ichkariga tortilmaydi. Afrika old Osiyoda tarqalgan. 20 – asr o'rtalarigacha Turkmanistonning janubida uchragan.

Delfinlar – nisbatan kichik, boshining oldingi qismi cho'zilib tumshuqni hosil qiladi. ko'pchilik turlarida orqa suzgich ham bo'ladi. 50 ga yaqin turi ma'lum. Ular orasida eng yirigi – **Kasatkalar** – ularning uzunligi 10 m gacha yetadi. delfinlar o'z o'ljasini ultira tovush yordamida topadi. Suvda ular yuqori tonda



qirsillagan tovush chiqaradi. Suv osti narsalariga tegib aks-sado singari quloqqa



keladi. Delfinlar tovush signallari yordamida o'zoro muloqot qilishadi. Natijada ular bir joyga (masalan oziq baliq ko'p bo'lgan joyga) to'planadi, birgalikda ov qilishadi.

Gibbonlar daraxtda yashovchi maymunlar.

Lunj xaltalari va dumini bo'lmaydi. Bir qancha belgilari bilan odamsimon maymunlarga o'xshab ketadi. Gibbonlar uzun oldingi oyoqlariga osilib, 10 m va undan ham uzoqroq masofaga sakrab o'ta oladi. Daraxt shoxi va yerda keyingi oyoqlarida yuradi. Janubiy Sharqiy Osiyo va Zond orollarining qalin tropik o'rmonlarida kichik oila bo'lib yashaydi. Har bir oilaning o'z yer hududi bo'ladi. Gibbonlar kuylovchi maymunlardir. Ular tong saharcha daraxtlarning eng uchki shoxlariga chiqib olib baland ovoza xor bo'lib kuylab quyoshni qarshi olishadi.



2. TOPSHIRIQLAR.

Veb-kvestni tayyorlayotgan talabar biolog, ximik yoki muxbir sifatida ma'lumotlar tayyorlaganda quyidagi maqsad va vazifalarga erishishi lozim:

Sut emizuvchi hayvonlar qanday mavjudodlar?

Sut emizuvchi hayvonlarning yer yuzida bu qadar keng tarqalganligi, iqlimning turli sharoitlariga moslashganligi, ichki va tashqi tuzilishida qanday o'ziga xosliklar mavjud?

1. Sut emizuvchilar sistematikasi va tuzilishidagi o'ziga xosliklar bilan tarnishing;
2. Sut emizuvchilarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini aniqlang;

3. Internet ma'lumotlari asosida o'quv axborotlarni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish.

3. ISHNI BORISHI.

1. Uzingizga rol tanlang. (O'qituvchi yordamida amalga oshiriladi)

2. Bir nechta o'quvchi bitta rol tanlagan bo'lsa, kichik guruxlarga bo'linib, yoki individual (yakka tartibda) ishlab, muammoli savolga bitta aniq javob shakllangunicha ishlash tavsiya etiladi.

3. Axborotlarni internet ma'lumotlari asosida shakllantiring. Internet manzillar xar bir rollarda mavjud.

4. Ishning yakunida siz olingan natijalarni kichik guruxda muxokama qilishingiz lozim xamda umumiy xulosalar xisobot kurinishida shakllantiriladi..

5. Kichik guruxda muxokama natijasida turli xil fikrlar bulishi mumkin, xattoki sizning fikringizga qarama qarshi xam, shunday xolatda vazminlik bilan umumiy xulosa qiling.

6. Vazifalarni kichik guruxda xar bir a'zolarga teng taqsimlang, xar bir vazifa o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiling.

7. Bajarilgan ishning natijasi sizning loyihangiz bo'lib u prezentatsiya ko'rinishida bo'lib, sizning kichik guruxingiz barcha savollarga batafsil javob berishi lozim. Prezentatsiyada jadvallar va rasmlar bo'lishi lozim. Prezentatsiya ximoyasi butun kichik guurux ishtirokchilari yoki birgina vakil tomonidan amalga oshirilib, o'qituvchini ko'shimcha savollariga javob bera olishingiz kerak.

Bajaradigan ishingizni baxolash mezoni bilan oldindan tanishib oling.

Siz quyidagilarni qo'llashingiz mumkin

- Multimediya prezentatsiyalari
- Umumlashtiruvchi jadvallar
- Turli xil sxema va diagrammalar
- Internet manzillari

4. ROLLAR TARIFI.

Anatomologlar – Sut emizuvchilarning ichki tuzilishini o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Tarixchilar – Sut emizuvchilarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Fiziologlar – Sut emizuvchilarning tashqi tuzilishini o’rganish bilan shug’ullanadilar.

Ekologlar – Sut emizuvchilarning turli xil iqlim sharoitlariga moslanishi, tuzilishi va hayot kechirishini o’rganadilar.

ANATOMOLOGLAR.

Topshiriq:

- o’tgan mavzuni qaytarish maqsadida (Internet manzillari pastda ko’rsatilgan) jadvaldan – Sut emizuvchilarning ichki organlari haqidagi ma’lumotlarni topib , olingan javoblarni prezentatsiyaga joylashtiring.

Yangi materiallardan foydalanib ishlang.

Jadvalni to’ldirib, prezentatsiya xolatida namoish eting.

№	Ichki a’zolar .	Ichki a’zolarning tuzilishi.	Ichki a’zolarning ahamiyati.
1	Skeleti		
2	Muskullari		
4	Ovqat hazm qilish tizimi		
5	Nafas olish a’zolari		
6	Ko’payish organlari		
7	Nerv tizimi		
8	Eshitish a’zolari		
9	Xid bilish a’zolari		
10	Ta’ m bilish a’zolari		

Savollarga javob bering

1. Sut emizuvchilarda ham odamlagidek o'pkalar mavjudmi?
2. Sut emizuvchilarning nerv tizimi yuqori darajada takomillashganmi?
3. Sut emizuvchilarning eshitish a'zolari taraqqiy etganmi?
4. Sut emizuvchilar qanday xulq atvorlarga ega?
5. Sut emizuvchilarning ta'm bilish a'zolari taraqqiy etganmi?
6. Sut emizuvchilarning ko'rish qobiliyati yaxshi rivojlanganmi?

Internet manzillari:

1. http://aqua.izmuroma.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=278&Itemid=109#1
2. <http://www.fdiary.fgids.com/manual/112/692/>
3. <http://www.ebio.ru/images/06030201.gif>

TARIXCHILAR.

Topshiriq:

- o'tgan mavzuni qaytarish maqsadida (Internet manzillari pastda ko'rsatilgan) savollarga javob topib, olingan javoblarni prezentatsiyaga joylashtiring.
Yangi mavzu bo'yicha ishleng.

1. Sut emizuvchilar haqida tarixiy ma'lumotlar (soni, yashash joyi, qachon va qayerda paydo bo'lgan);
2. Sut emizuvchilar sinfining qanday turkumlari mavjud va ular bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?
3. Tuxum qo'yadigan Sut emizuvchilar haqida nimalar bilasiz?
4. Ushbu fikrni davom ettiring "Sut emizuvchilar tabiatning ajoyib mavjudotlari,"
5. Sut emizuvchilarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati.

Internet manzillari:

1. <http://guppi-i-drugie.ru/kogda-poyavilis-ryby-otkuda-poyavilis-ryby/>
2. <http://ru.wikipedia.org/wiki/>
3. <http://zoologia.poznajvse.com/mnogokletochnye-zhivotnye/ryby/hozyaystvennoe-znachenie-ryb-i-ohrana-rybnyh-hozyaystv>

FIZIOLOGLAR.

Topshiriq:

- o'tgan mavzuni qaytarish maqsadida (Internet manzillari pastda ko'rsatilgan)
Sut emizuvchilarning tana tuzilishlari haqidagi ma'lumotlarni topib, olingan javoblarni prezentatsiyaga joylashtiring.
Yangi materiallardan foydalanib ishlang.

Savollarga javob topib, prezentatsiya xolatida namoish eting.

1. Haqiqatdan ham sut emizuvchilarning tana tuzilishi yashash muhitiga bog'liqmi?
2. Sut emizuvchilar tanasining shakli va o'lchami bir xilmi?
3. Sut emizuvchilarning gavda bo'limlarini ayting?
4. Haqiqatdan ham umurtqali hayvonlar ichida faqat sut emizuvchilarning tashqi quloq'i va quloq suprasi rivojlanganmi?
5. Terisi jun qoplaminig oziga xosligi va ahamiyati.
6. Barcha sut emizuvchilarning ham jun qoplami mavjudmi?
7. Sut emizuvchilar dumi qanday vazifa bajaradi?

Internet manzillari:

1. <http://guppi-i-drugie.ru/kogda-poyavilis-ryby-otkuda-poyavilis-ryby/>

2. <http://www.ecosystema.ru/08nature/fish/m01.htm>
3. http://aqua.izmuroma.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=277&Itemid=109

EKOLOGLAR.

Topshiriq:

- o'tgan mavzuni qaytarish maqsadida (Internet manzillari pastda ko'rsatilgan) jadvaldan – Iqlimning turli sharoitlariga sut emizuvchilarning moslanishlari haqidagi ma'lumotlarni topib , olingan javoblarni prezentatsiyaga joylashtiring. Yangi materiallardan foydalanib ishlang.

Jadvalni to'ldirib, prezentatsiya xolatida namoish eting.

№	Sut emizuvchilar tarqalgan hududlar.	Tarqalishi	Moslanishlari
1	Cho'l hayvonlari		
2	Tog' hayvonlari		
3	Suv havzalari hayvonlari		
4	Voha hayvonlari		

Savollarga javob bering:

Nima sababdan respublikamiz hududida hayvonlar bir tekis tarqalmagan?

Cho'l hududida yashaydigan hayvonlarning nima sababdan barmoqlarida uzun va qattiq qillari bo'ladi?

Internet manzillari:

1. http://aqua.izmuroma.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=278&Itemid=109#1
2. <http://www.fdiary.fgids.com/manual/112/692/>
3. <http://www.ebio.ru/images/06030201.gif>

5. BAXOLASH MEZONLARI

BAXOLASH MEZONLARI

Mezonlar	Baholash mezonini taqsimoti	Ballar
Topshiriq moxiyatini tushunish.	• Bajarilagan ish topshiriq moxiyatini to'liq tushunishni ifoda etadi.	10
	• Mavzuga oid bo'lgan xamda mavzuga oid bo'lmagan ma'lumotlar mavjud.	5
	• Bevosita mavzuga oid bo'lmagan ma'lumotlar mavjud. Yig'ilgan ma'lumotlar analiz bo'lmagan va baholanmaydi.	0
Mavzuni yoritish.	• To'liq.	10
	• Qisman.	5
	• Yoritilmagan.	0
Mavzuning asosiy qismi bayoni.	• To'liq.	10
	• Qisman.	5
	• Yoritilmagan.	0
Muammoni yechimi yo'llari ko'rsatilishi.	• Muammoni yechimi yo'llari ko'rsatilgan	10
	• Muammoni yechimi yo'llari to'liq qo'rsatilmagan.	5
	• Muammoni yechimi yo'llari aniq emas yoki noto'g'ri.	0
Ma'lumotni taqdim etish mantiqiyligi.	• Ma'lumot mantiq asosida taqdim etilgan.	10
	• Mantiqiy ketma ketlik yo'q	5
	• Mantiq mavjud emas.	0

Guruhning mustaqil bajaradigan ishi

Guruhda ishning rejalashtirilishi	• Guruhda ish aniq rejalashtirilgan.	5
	• Guruhda ish qisman rejalashtirilgan.	3

	<ul style="list-style-type: none"> • Guruhda ish umuman rejalashtirilmagan. 	0
Guruhda rollarni taqsimlash	<ul style="list-style-type: none"> • Jamoa azolari orasida barcha ish bir xil taqsimlangan. • Jamoa qatnashchilarining ko'pchilikgi orasida ish bir xil taqsimlangan. • Guruhda jamoa azolarining bir nechtasi ish uchun javob berdi. 	5 3 0
Muallifning o'ziga hosligi (Originalligi)	<ul style="list-style-type: none"> • Ishning noyobligi. O'zida juda ko'p original, ijodkorlik misollarini tutishi. • Ishda muallifning topqirligi mavjud. • Standart ishda mualliflikning o'ziga xosligi yo'q. 	5 3 0
Guruxni mustaqil ishlash uchun rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • Ishni bajarishda to'liq mustaqil ishlagan. • Guruxning qisman mustaqil ishlashi. • Guruxning mustaqil ishlamaganligi. 	5 3 0
Ishni rasmiylashtirish		
Guruxni mustaqil ishlash darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Ishni bajarishda to'liq mustaqil ishlagan. • Guruxni qisman mustaqil ishlashi. • Guruxni mustaqil ishlamaganligi. 	5 3 0
Grammatika, mos keluvchi lug'at, yozilishini xatosizligi, savodxonligi	<ul style="list-style-type: none"> • Grammatik, stilistik, orfografik nuqtai nazardan ishning xatosiz yozilganligi • Ishni grammatik, stilistik, orfografik nuqtai – nazardan qo'pol bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yib yozilganligi. • Ishda grammatik, stilistik orfografik nuqtai nazardan qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. 	5 3

		0
--	--	---

ISHNI HIMOYA QILISH

Ma'ruzani sifati	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzaning asosiy xolatlari, dalillari ishonchliligi, kompozitsiyasining mantiqiyligi, olingan natijalarning to'liq taqdimot qilinishi. 	10
	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzani mantiqiy ketma – ketligini yo'qligi, olingan natijalarni to'liq taqdim etilmaganligi, dalillarni ishonchli emasligi. 	5
	<ul style="list-style-type: none"> Asosiy xolatlarni dalillari ishonchli emasligi, mantiqning yo'qligi, tadqiqot natijalarini keltirilmaganligi. 	0
Ma'ruzaga oid bilimning ko'lami va chuqurligi	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar eruditsiyasini (ilmini), fanlararo aloqalarni ko'rsatib namoyish qilishi. 	10
	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar materialni savodxonlik bilan bayon qilishi, lekin etarli darajada chuqur bilimni ko'rsata olmasligi. 	5
	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachining materialni umuman bilmasligini ko'rsatib qo'yishi. 	0
Nutq madaniyati, auditoriya oldida o'zini tutishi	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar auditoriya oldida o'zlarini ishonchli tutishi, saviyali nutqga egaligi, reglamentga rioya qilishi, auditoriya diqqatini o'zida jamlab turishi. 	10
	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar o'z chiqishida uncha ahamiyatga ega bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yishi, reglamentini ozroq buzishi, auditoriya diqqatini qisman jalb qilishi. 	5
	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar auditoriya oldida o'zlarini yo'qotib qo'yishi, nutqini yo'qligini sezib qolishi, reglamentga rioya qilmasligi, auditoriya diqqatini jamlay olmasligi. 	0
Savollarga javob berish	<ul style="list-style-type: none"> Ma'ruzachilar savollarga to'liq va ishonchli javob berishi, o'zini do'stona tutishi, javob berganda mavzuni muvaffaqiyatli ochib berishga harakat qilish. 	10

	<ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruzachini barcha savollarga ishonchli javob bera olmasligi. • Ma'ruzachi savollarga javob bera olmasligi yoki o'zini agressiv, qo'pol tutishishi. 	5 0
Ma'ruzachini ishbilarmonlik va irodalilik sifatleri	<ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruzachini yuqori natijalarga erishishga harakat qilishi, xushmuomalaligi, muloqot o'rnatishga harakat qilishi. • Ma'ruzachi diskussiya qilishga tayyorligi, doim ham xushmuomalali bo'lmasligi. • Ma'ruzachi diskussiyaga tayyor emasligi, agresivligi, muomala qilishdan o'zini tortishi. 	10 5 0

“5” baho – 86-100

“4” baho – 71-85

“3” baho – 56-70

“2” baho – 0-55

6. XISOBOT.

Sizning ishingizning natijasi prezentatsiya ko'rinishidagi loyixa bo'ladi. Unda guruxingiz javob berishi kerak bo'lgan barcha savollarga javob aks etgan bo'ladi.

Savollarga barcha javoblar prezentatsiyadan joy topgan bo'ladi. Prezentatsiyada jadval va illyustratsiyalar keltirilishi mumkin. Tayyorlangan prezentatsiyani yo butun gurux, yoki ma'ruzachi o'qituvchining barcha savollariga javob berib himoya qilishi zarur. Oldindan sizning ishingiz yuzasidan baxolanish mezonlari bilan tanishib chiqqan bo'lishingiz kerak.